

BOLALAR NASRIY ADABIYOTIDA TABIAT TASVIRI

Ilmiy rahbar: Abdullayeva Gulnoza

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

1-kurs 25.178 guruh talabasi

Sherqoziyeva Muhayyo Kamoliddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar nasriy adabiyotining durdona asarlari orqali tabiat tasvirining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek va jahon bolalar adabiyotidagi mashhur asarlar misolida tabiat manzaralari, qahramon ruhiyati, voqealar rivoji hamda asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada o'zbek bolalar nasri jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Kirish so'zlar : nasr , ramz , obraz , detall , peyzaj,

Annotation: This article analyzes the artistic and aesthetic features of nature depiction through masterpieces of children's prose literature. Using examples from famous works of Uzbek and world children's literature, the role of natural landscapes in revealing the characters' psychology, the development of events, and the ideological content of the work is highlighted. The article also comparatively examines Uzbek children's prose and samples of world children's literature.

Keywords: prose, symbol, image, detail, landscape.

Shoir ,yozuvchi ,umuman olganda, ijodkor ahli nimadandir ilhomlanib, asar yaratadi. Ko'pincha, ijodkorlar tabiat qo'ynidan ilhomlanadi va ongida ifodalangan tasvirni qog'ozga tushiradi. Har qanday asar tabiat manzarasi bilan boshlanadi .Misol uchun Cho'lponning " Kecha va Kunduz" asari bahor faslining kirib kelishi bilan , Said Ahmadning "Ufq" romanida esa dalalar, tong manzaralari va tabiatning sokin tasviri bilan boshlanadi. Ammo bolalar nasriy adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asarlar qissa , roman , hikoyalar barchasida tabiat shu darajada gavdalanadiki , hattoki asarni o'qigan inson ham o'zini tabiat bilan hamohang his qiladi. Quyosh chiqishi , quyosh botishi kabi oddiy hodisalarni bolalaricha fikrlab ,o'ylab xuddiki bir yangi olamga tushib qolgan insondek qabul qiladi va tasvirlaydi.

...Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi, jang bobokalonlar aytishganidek, beomon, shafqatsiz edi. Birin-ketin yashil bargchalari qovjirab taslim bo'lishdi, shoxchalaridagi hayot so'ndi. «Tanam tirik hali, — entikib dedi novcha niholcha, — men yashashim kerak, albatta yashayman...» U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltda daranglatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmikan, deb yana bir bora ko'cha boshiga ko'z tashladi, yomg'ir tomchilaridan umidvor bo'lib, bulut bo'lmasa ham ko'kka tikilib, uzoq qotib turdi... Keyin

to'satdan sersuv adirlarda birga o'sgan ukalarining o'ligiga ko'zi tushib qoldi.. Qiziq, hammalari tik turgancha jon berishibdi... O'tgan yili xuddi shu kecha- kunduzlarda hammalari tirik, yayrab-yashnab barq urib o'sishayotgan edi... Endi bo'lsa... «yo'q, men yashashim kerak...».

- Suv! Suv! Suv!

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o'zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash'asi bilan mast bo'la boshladi, keyin o'sha kun — haddan tashqari qizdirib yuborgan 19 iyun kuni kunduz soat otilarda jon berdi. Tik turgancha qotib qoldi u... [1.178] Bu atoqli adib Xudoyberdi To'xtaboyevning shox asarlaridan biri — «Nihollar nolasi»dan parcha. Bu asar hajmi oz bo'lishiga qaramasdan bolalar behad sevib o'qiydilar, o'zlariga xulosalar chiqaradilar.Hattoki maktab o'quv dasturiga ham kiritilgan . Haqiqatan ham nihol — daraxtning xuddi inson kabi joni borligi, ozuqa — suvga ehtiyoji, parvarish qilinmasa halok bo'lishi asarning asosini tashkil etadi. Parchada tabiatning borlig'i , hayotimiz ramzi suv va nihol obrazlari yordamida bolalarning tabiatga mehribon bo'lishiga , suvni tejab ishlatishga , nihollarni payhon qilmaslikka o'rgatadi. Ya'ni ikki dona detal orqali butun tabiatning ahvoli ochib beriladi.

Bolalar nasriy adabiyotidagi muhim vazifalaridan biri bolalarni qay yo'l bilan bo'lmasin mehrlil , ahil – inoq , odobli qilib tarbiyalashdir .Shuning uchun ko'plab yozuvchilar o'z asarlarida bolalar uchun tabiatni asosiy syujet sifatida baholashadi.Bolalar tabiat shaydosi bo'ladilar. Tabiatni sevishga, tabiat shaydosi bo'lib kamol topishga o'rgatuvchilar asosan kattalar hisoblanadilar. Bu borada badiiy adabiyotning ham ahamiyati katta. O'zbek bolalar nasriy adabiyotida tabiat tasviri juda ham mukammal tasvirlanadi , biroq jahon bolalar nasriy adabiyotida bu masala yuksak martaba kasb etadi.O'zbek bolalar nasriy adabiyotida tabiat tasviri urf-odat va insonning tabiat bilan uyg'un hayoti orqali ifodalanadi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida tabiat bolalarning beg'ubor dunyosi, qishloq hayoti va sarguzashtlari bilan bog'liq holda tasvirlansa , jahon bolalar adabiyotida esa tabiat tasviri yanada kengroq falsafiy va ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, Antuan de Sent -Ekzuperining “ Kichkina shahzoda “ asarida sahro tasviri yolg'izlik, inson qalbi va hayot ma'nosini anglatadigan ramziy vosita sifatida qo'llanadi. Tabiat bu yerda nafaqat ,oddiy manzara sifatida , balki falsafiy xayol manbai hisoblanadi. Jahon bolalar adabiyotiga o'z hissasini qo'shgan ijodkorlar juda ko'p .Ayniqsa , Jonatan Svift “ Gulliverning sayohatlari “ , Xans Kristian Andersenning “ Qor malikasi “ , Antuan de Sent Ekzyuperining “ Kichkina shahzoda “ , Chingiz Aytmatovning “ Oq kema “ asarlarida tabiat tasviri mukammal ifodalangan . O'zbek bolalar nasriy adabiyotida ham o'z davrining mashhur yozuvchilari bor .

Jumladan, Xudoyberdi To'xtaboyev “ Sariq devni minib” , G'afur G'ulomning “ Shum bola “ , Turob To'laning “Yetti zog'ora qissasi “ shular jumlasidandir. Xulosa qilib aytganda , bolalar nasriy adabiyotida har doim asarlar yaxshilik bilan yakunlanadi. Chunki bunday

asarlarning asosiy maqsadi bolalarni ezgulikka, mehr-oqibatga, do‘stlik va insonparvarlikka undashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamasoli Jumaboyev . “ Bolalar adabiyoti va folklor” .O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi .Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti .Toshkent – 2006 – 178 bet
2. Antuan de – Sent – Ekzyuperi .”Kichkina shahzoda” .G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi .Toshkent – 2019
3. O‘zbek bolalar adabiyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar va adabiy manbalar.

